



**EOC**  
EUROASIAN  
ONLINE  
CONFERENCES

# ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON  
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND  
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object  
identifier

eoconf.com - from 2024



**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION:** a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 5

**Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish**

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



**ABDULLA QAHHORNING “ANOR” HIKOYASI VA UNING POETIK TAHLILI****Ahmadjonova Sarvinoz Olimjon qizi**

Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich talabasi

e-mail: ahmadjonovs322@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Oripova Gulnoza,**

Farg'ona davlat universiteti dotsenti,

filologiya fanlari doktori (DSc)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mahoratli yozuvchi Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasi poetikasi ya’ni ichki tuzilishi, g’oya, mavzu, obrazlar va shu kabi tarkibiy qismlari tahlil qilingan.

**Kalit so’zlar:** til, uslub, poetik tushuncha, obrazlar tizimi, janr, hikoya, asosiy g’oya.

**Аннотация:** В данной статье анализируется поэтика рассказа «Анор» талантливого писателя Абдуллы Каххора, то есть его внутренняя структура, идея, тема, образы и подобные компоненты.

**Ключевые слова:** язык, стиль, поэтическая концепция, система образов, жанр, рассказ, главная идея.

**Abstract:** This article analyzes the poetics of the story "Anor" by the talented writer Abdulla Qahhor, that is, its internal structure, idea, theme, images, and similar components.

**Keywords:** language, style, poetic concept, system of images, genre, story, main idea.

Abdulla Qahhor ijodini o’rganar ekanmiz, uning mohir so’z san’atkori ekanini tan olishimiz kerak. Hikoyanavis adibning mahorati uning har bir timsolida, detallarida namoyon bo’ladi. Adabiyotshunoslar yozuvchini “o’zbek adabiyotining Chexovi” deb ta’riflashadi va buning ko’p marotaba guvohi bo’lganmiz. “Badiiy adabiyotning asosida, shubhasiz, inson ma’naviyati bilan bog’liq muammolarning badiiy ifodasi turadi. Shu boisdan ham hech bir ijodkor yo’qki, o’z asarida bu masalani chetlab o’tgan bo’lsin. Abdulla Qahhor ijodi, jumladan hikoyalari yuzasidan ham shu fikrni aytish mumkin”,- deya yozadi birinchi prezidentimiz Islom Karimov. Bundan tashqari Normatov ham adib haqida iliq gaplar yozib qoldiradi. “Ba’zi yozuvchilar asarlarida o’rinsiz, murakkab, kitobxonga hech qanday zavq bermaydigan peyzajlar ham uchrab qoladi. Abdulla Qahhor ijodida esa bunday holni ko’rmaysiz”

Badiiy adabiyotlarni tahlil qilish, avvalo, uning nomidan boshlanib, yozuvchi so’nggi nuqtani qo’yguniga qadar davom etadi. Zero, adabiy asar tahlili uni mexanik tarzda qismlarga ajratish emas, aksincha, ularning har birini butunning qismi o’laroq idrok qilish, ularning qay tarzda aloqaga kirishishi-yu badiiy butunlikning yuzaga kelishini ham ko’ra olishdir., Abdulla Qahhor o’z badiiy asarlarida xalqning “tilida turgan” gaplarni aytishga harakat qilgan. Buni biz “Anor” hikoyasi orqali ko’rib chiqamiz. Hikoyani o’qigan





o'quvchi anglaydiki, farzand kutayotgan ayol anor yeyishni xohlaydi, va o'z-o'zidan savol tug'iladi. Nega yozuvchi aynan "anor" mevasini tanlaydi, nega boshqa meva emas(masalan, olma, xurmo yoki qulupnay)? Anor badiiy asarda farzand ramzi sifatida qo'llaniladi. Asarning mazmunida bu tushuncha o'z o'rnini topgan.

"Uylar to'la non, och-nahorim, bolam,  
Ariqlar to'la suv, tashnai zorim, bolam"

Hikoya epigraf bilan shunday boshlanadi. Abdulla Qahhorning yana bir mahorati shundan iboratki, asar boshidanoq ko'zlanayotgan maqsadni ochiq ifodalay oladi. Buni shu epigraf orqali bilishimiz mumkin. Bu orqali jamiyatdagi qashshoqchilik, oilalarning qiynalishi, ya'ni uyi to'la non bo'lsa ham farzandlar och qolishi nazarda tutilgan. Buni hikoyaning asosiy g'oyasi, maqsadi qilib olishning sababi yozuvchi o'sha davrni yoritib bermoqchi. Abdulla Qahhorning ko'p hikoyalari 1936-yilda chiqarilgan. Bu davr esa sovet davriga to'g'ri keladi. Habarimiz borki, u davrda biz sovet davlati uchun asosiy xomashyo vazifasini bajarganmiz. O'sha davr odamlarining o'zlari yetishtirgan mahsulotlari olib ketilgan va jamiyat qiyinchilikda yashagan. Buni yozuvchimiz ikki misra orqali ifodalab, tushuntirib berolgan.

" Turobjon tugunchani orqasiga bekitib, tegishdi:

- Akajon, degin!
- Akajon! Jo-on aka!
- Nima berasan?
- Umrinning yarmini beraman!" Qahramonlarning tilidan aytilgan bu dialogda ayollar o'z erlarini hurmat qilgani, ularni o'zidan yuqori ko'rgani, ya'ni oila ustuni deb bilgani ko'rsatiladi.

"Turobjon do'ppisini boshqan oldi va qoqmoqchi bo'lganida ko'zi yirtiq yengiga tushdi, yuragi achidi: endi uch-to'rt yuvilgan yangigina yaktak edi", "Bir qadoq anor falon pul bo'lsa! Saharmardondan suv tashib, o'tin yorib, o't yoqib bir oyda oladiganim o'n sakkiz tanga pul", "Asal otliqqa yo'q, biz hali piyoda-ku" – bu gaplarning personaj nutqiga kiritilib ketilishi asarning bosh g'oyasi- kambag'allik, qashshoqlik kabilarni ochishning eng cho'qqi qismi desak mubolag'a bo'lmaydi. Qahramon umri davomida bir marta asal yeganini gapirib o'tishi o'quvchini o'sha davrga kirib, qaramonlar bilan yashashga, jamiyat hayotini his qilishga undaydi. O'sha paytda ayollar ko'chaga chiqavermagani aks ettirilgan sahnalar ham mavjud. "U Mullajon qozining bog'ini ko'rgan emas, ammo ta'rifini eshitgan" deydi yanada ochiqror bayon etish uchun yozuvchi.

Turobjon obrazi orqali g'ururli, andishali shaxs qiyofasi tasvirlanadi. Hatto u hotinining "kambag'alchilik o'lsin" degan gapiga chiday olmaydi va uni urib yuboradi. Shundan so'ng chiqib ketib, qo'lida anor bilan kirib keladi. So'nggi xulosa doimgidek o'quvchining o'ziga tashlanadi.





Adabiyotni tushungan, uning mazmunini bilgan inson Turobjonning anor sotib olishga qurbi yetmasligini va asar so'nggida o'g'rilik qilib bo'lsa ham xotiniga anor olib kleganini bilib oladi.

Xulosa shuki, Abdulla Qahhorning hikoyasidagi barcha hodisalar, shaxslar va holatlarni o'zaro biriktirib turuvchi ijtimoiy-axloqiy pafosni anglash hamda chuqur his etishgina unda o'zaro chatishib ketgan fikrlar mohiyatini, ular o'rtasidagi aloqani to'g'ri tushunishga yo'l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qahhor. "Anor". T:2012. G'afur G'ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi
2. Erkin Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish. T: 2007. "Iqtisod-Molia"
3. Karimov I. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch", "Ma'naviyat" nashriyoti, Toshkent,2008, 176-b
4. Normatov U. "Ijod sehri". "Sharq" nashriyoti, Toshkent, 2007.
5. Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari.T: 2018. 458-b

